



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

№3

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2025



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2025 йил, 3-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий
жамоаси:**

Бош муҳаррир:

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

Бош муҳаррир

ўринбосари:

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

Масъул котиб:

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

Муҳаррирлар:

и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров

PhD, доцент И.М.Пардаева

PhD, И.Ш.Эрназарова

Техник муҳаррир:

и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

Корректор:

PhD, доц. С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба
чоп этилади.

**Ўзбекистон худудида
тарқатилади.**

Тахририят манзили:

140100, Самарқанд шаҳар,
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,
+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53
эл.почта:

samisiservis@mail.ru

Тахририят кенгаши раиси:

М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис
институти ректори, и.ф.д., профессор

Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:

Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

Тахрир кенгаши аъзолари:

Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Президенти
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,
профессор

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.К.Ғоибназаров – и.ф.д., профессор.

М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Д.Р.Зайналов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Муртазаев – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

М.Р.Болтабаев – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.

Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

С.Н.Тошназаров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.

А.Бектемиров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.

З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ профессори в.б., иқтисод
фанлари доктори

Л.Н.Халикова – СамИСИ профессори, DSc

Ф.А.Сафаров – СамИСИ доценти, DSc

А.М.Каримова – СамИСИ профессори в.б., DSc

И.Б.Маттиев – СамИСИ профессори, DSc

КИЧИК БИЗНЕС ВА ОИЛАВИЙ ТАДБИРКОРЛИК	
Гулнора Мардиевна Шадиева Малый бизнес как фактор социально-экономического развития Узбекистана	155
Laziz Niyozovich Xudoyorov Qashqadaryo viloyatida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlari	160
МЕНЕЖМЕНТ ВА МАРКЕТИНГ	
Dilafroz Saidbaxromovna Saidaxmedova Qurilish korxonalarida sifat menejmenti tizimini samarali joriy etish: tahlil va takliflar	164
Ибодулла Хасанович Ибрагимов Персонализация как драйвер повышения результативности транзакционных маркетинговых кампаний	167
Baxtiyor Nabijanovich Dedajanov Tovar-moddiy zahiralarni erkin talab sharoitida boshqarish – korxonalar operatsion faoliyatining samaradorligini oshirish garovi	171
Xilola Nematovna Ochilova “Kompensatsiya va imtiyozlar” fanining mazmuni, mohiyati va ahamiyati	175
Ирода Аминжонова Умурзакова Совершенствование организационно-экономических механизмов маркетинга в условиях цифровой трансформации сферы услуг	180
Botir Hayat Muradov Togʻ-kon sanoati korxonalarining yashil iqtisodiyotga oʻtish muammolari va yechimlari	183
Zuhriddin Nuriddinjon oʻgʻli Salohiddinov Iqtisodiy jarayonlarda resurslardan foydalanish va taqsimot modellari	186
ИНВЕСТИЦИЯ	
Ойдин Давроновна Хамракулова Инвестиции и становление инновационного пути развития экономики Узбекистана	192
БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ, ИҚТИСОДИЙ ТАҲЛИЛ ВА АУДИТ	
Bobur Farxodovich Boronov, Shahboz Shodi oʻgʻli Rajaboyev Raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari xizmatlarining tavsifi va buxgalteriya hisobi	197
Otabek Olimjonovich Sobirov Boshqaruv hisobini tashkil etishning nazariy asoslari	202
Xurshidjon Nazrullo oʻgʻli Abdullayev Ekologik audit oʻtkazishning usullari va tartib-qoidalari	205
Marifat Umarovna Xudoyberdiyeva Chakana savdo aylanmasining mohiyati va rivojlanishi	211
ТАЪЛИМ, КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ВА ПЕДАГОГИКА	
Shaxnoza Ergashevna Samandarova Boshlangʻich va umumiy oʻrta taʼlim matematika taʼlimida uzviylik muammosining nazariy asoslari	214
ЭЪТИБОРГА МОЛИК МАСАЛАЛАР	
Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев Самарқанд ҳаётидаги олти муаммо, олти таклиф ва олти натижа	217

ТАЪЛИМ, КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ВА ПЕДАГОГИКА

Shaxnoza Ergashevna Samandarova – Samarqand davlat pedagogika instituti assistenti

BOSHLANG‘ICH VA UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MATEMATIKA O‘QITISHDA UZVIYLIK MUAMMOSINING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang‘ich va umumiy o‘rta ta‘lim bosqichlarida matematika ta‘limi o‘rtasidagi uzviylik muammosi va uning nazariy asoslari yoritilgan. Ta‘lim jarayonida fanlararo va bosqichlararo bog‘liqlikning yetarli darajada ta‘minlanmasligi natijasida yuzaga keladigan muammolar tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada uzviylikni kuchaytirish orqali o‘quvchilarning matematik tafakkuri, fanlararo bilimlarni qo‘llash qobiliyati va mustahkam bilim asoslarini shakllantirish imkoniyatlari tahlil etilgan.

Kalit so‘zar: uzviylik, ta‘lim shakllari, ta‘lim maqsadlari, ta‘lim mazmuni, ta‘lim usullari, ta‘lim vositalari, aktualizatsiya (esga tushirish), tizimlashtirish va umumlashtirish.

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimiz ta‘lim siyosatining asosiy vazifalaridan biri uning asosiy mohiyatini saqlab qolish va shaxs, jamiyat va davlatning dolzarb va istiqboldagi ehtiyojlariga muvofiqligi asosida zamonaviy ta‘lim sifatini ta‘minlash bo‘lib hisoblanadi. Bu kabi islohotlardan ko‘zda tutilgan asosiy maqsad yosh avlodning tarbiyasiga atroflicha yondashish, ularning bilim doirasini kengaytirish, o‘quv-bilish faoliyatini rivojlantirishdan iboratdir¹.

Umumilliy toifa sifatida uzviylik obyektiv va umumiy xarakterga ega bo‘lib, u tabiatda, jamiyatda va bilishda namoyon bo‘ladi. Ta‘limdagi uzviylikning zamonaviy holati bu masalaga oid ko‘plab masalalarni har tomonlama qamrab olganligi va ayrim tushunchalarning turlicha talqin qilinishi bilan tavsiflanadi. Ma‘lumki, bu muammoni ko‘rib chiqishda ikki yondashuv mavjud: murakkab pedagogik hodisalarga nisbatan qo‘llanilganda uzviylik uslubiy muammolarning mohiyatini anglash, o‘rganish va ta‘lim-tarbiya jarayonini boshqarishga yordam beruvchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi, shu bilan birga, uzviylikning o‘zi ham maqsadli va xilma-xil tadqiqotlarning obyekti hisoblanadi.²

Ta‘lim mazmunidagi uzviylik o‘quv dasturlarini hamda o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanmalarni tuzishda namoyon bo‘ladi. Bu borada bilimlar mazmuni va ta‘lim metodlari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni, shuningdek, ketma-ket sinflarda dars beruvchi o‘qituvchilarning o‘quv faoliyati o‘rtasidagi aloqani ta‘minlash muhimligi ta‘kidlanadi. Birinchi vazifani hal qilishda, ya‘ni fan bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalar tizimini shakllantirishda, bu tizimning sinfdan sinfga qanday rivojlanishini kuzatish, turli o‘qitish metodlarining uyg‘unligini hisobga olish, yangi materialni avval o‘zlashtirilgan bilim tizimi bilan bog‘lashda o‘quvchilarning mustaqil faoliyatiga rahbarlik qilish zarurligi ko‘rsatiladi.³

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Pedagogik va xususiy-didaktik darajadagi uzviylik masalalari B.G.Ananyev, V.A.Batarshev, P.Ya. Galperin, Sh.I.Ganelin, I.D.Zverev, L.Ya.Zorina va boshqalar tomonidan ochib berilgan. Xususiy-didaktik darajada uzviylik ta‘limning tizimlilik va ketma-ketlik prinsipining ifodasi sifatida qaraladi. Ma‘lumki, uzviylik, ketma-ketlik va tizimlilik tamoyillari o‘zaro bog‘liqligi klassik pedagogikada ham aniqlangan bo‘lib, u yerda uzviylik alohida prinsip sifatida ko‘rib chiqilgan. Bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini tahlil qilgan K.D.Ushinskiy o‘zlashtirish jarayoni bosqichma-bosqich, ketma-ketlik va izchillik asosida kechishi lozimligini ta‘kidlaydi. U bilimlarni o‘zlashtirishni yangi egallangan bilimlar bilan ilgari o‘zlashtirilgan bilimlar o‘rtasida bog‘liqlik o‘rnatish jarayoni deb hisoblagan, bu bilimlar qanday fan doirasida va qachon o‘zlashtirilganligidan qat‘i nazar, ular o‘rtasida ichki aloqalar mavjud deb bilgan. “Biz oldinga borar ekanmiz, ilgari egallangan narsalarni bekor qilmasligimiz kerak, ularni foydasiz qoldirmasligimiz lozim” degan edi.

K.D.Ushinskiy ongli o‘rganish tamoyili bilan ketma-ketlik, uzviylik va tizimlilik tamoyillari o‘rtasida bog‘liqlikni ko‘radi. Fanlararo bog‘liqlikni o‘rnatish va shu asosda bilimlar

¹ N.S.Kiyamov “Pedagogika. Psixologiya”, O‘quv qo‘llanma. Samarqand 2024. B.7.

² E.A.Комарова “Преемственность в обучении математике” Методическое пособие. Вологда 2007. С.108.

³ Tojiboyeva G., Shonosirova A., Xo‘jayev A., Davletov E., Abdullayeva M., “Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi”, Toshkent “MALIK PRINT COL MCHJ” 2021. B.45.

tizimini shakllantirishda yuzaga keladigan muammolar mavjud.

Ta’limdagi uzviylik muammosining eng to’liq va ko’p jihatli yondashuvi B.G. Ananyev, Sh.A.Ganelin kabi olimlar tomonidan berilgan bo’lib, ular uzviylikni umumiy-nazariy darajada ta’lim jarayonini boshqarishga imkon beruvchi vosita sifatida o’rganadilar.

Masalan, B.G.Ananyev ta’kidlaydiki, pedagogik fanlarida uzviylik muammosi, avvalo, turli bosqichdagi ta’lim dasturlarini tuzish va qayta ko’rib chiqish, shuningdek, ta’lim mazmuni bilan bog’liq asosiy muammolarni hal qilishda paydo bo’ladi. Ta’lim mazmunidagi uzviylik o’quv dasturlarini hamda o’qituvchilar uchun metodik qo’llanmalarni tuzishda namoyon bo’ladi. Bu borada bilimlar mazmuni va ta’lim metodlari o’rtasidagi uzviy bog’liqlikni, shuningdek, ketma-ket sinflarda dars beruvchi o’qituvchilarning o’quv faoliyati o’rtasidagi aloqani ta’minlash muhimligi ta’kidlanadi. Birinchi vazifani hal qilishda, ya’ni fan bo’yicha bilim, ko’nikma va malakalar tizimini shakllantirishda, bu tizimning sinfdan sinfga qanday rivojlanishini kuzatish, turli o’qitish metodlarining uyg’unligini hisobga olish, yangi materialni avval o’zlashtirilgan bilim tizimi bilan bog’lashda o’quvchilarning mustaqil faoliyatiga rahbarlik qilish zarurligi ko’rsatiladi. Shuningdek, umumiy o’qitish metodlarini ishlab chiqishda metodik komissiyalar va o’qituvchilarning kundalik hamkorligi rolining ortib borayotgani qayd etiladi.

Shu munosabat bilan B.G.Ananyev quyidagicha yozadi: **“Ta’limdagi uzviylik rivojlanishining eng muhim shartlaridan biridir, balki u o’quvdagi izchillikni ham o’z ichiga oladi, ya’ni o’quvchilarning ongida o’zlashtirilayotgan bilimlarning ichki bog’liqligi, ularning tizimlashtirilishi va ta’lim hamda hayotning turli sharoitlarida qo’llanilishini bildiradi”**.

Sh.I.Ganelin ham uzviylik muammosining muhim jihatlaridan biri sifatida o’quvchining ongida bilim, ko’nikma va malakalarning o’zaro bog’liqligi, ilgari o’tilgan materialni yangi, yuqoriroq darajada anglab yetish, o’qituvchining ish natijadorligi – ya’ni o’quvchilarning taqdim etilgan o’quv materialini qanday darajada o’zlashtirishi, shuningdek, o’quvchining har tomonlama barkamol shaxs sifatida rivojlanishi masalalarini qayd etadi.

A.M.Pyshkalo uzviylik muammosining metodik tizimga nisbatan ichki va tashqi ko’rinishlarini ajratadi. Bu tizimga quyidagi invariant komponentlar kiradi: maqsadlar, mazmun, usullar, vositalar va o’qitishning tashkiliy shakllari – har bir o’quv fanini o’qitish metodikasi asosini tashkil etadi. Ushbu tizimning ishlashi ichki tuzilishi va tashqi aloqalar bilan bog’liq qonuniyatlar orqali belgilanadi.

Metodlar. Maktab ta’limining barqarorligi sharoitida metodikaning barcha elementlari yillar davomida o’zgarishsiz qolgan. Bu barqarorlik har bir elementning rivojlanishini va ular o’rtasidagi aloqalarni, asosan, quyidagi chiziqli (ketma-ket) tartibda belgilagan: ta’lim maqsadlari → ta’lim mazmuni → ta’lim usullari → ta’lim vositalari → ta’lim shakllari.

Matematika kursining chiziqli qurilishi takrorlashni tashkil etishda uch bosqichni ajratib ko’rsatishga imkon beradi: Bilim, ko’nikma va malakalarni umumlashtirish va tizimlashtirish – o’rganilayotgan mazmuniy yo’nalish doirasida har bir ta’lim bosqichida asosiy g’oyalarni ajratish va ularni tizimlashtirish, boshqa mazmuniy yo’nalishlar bilan kerakli aloqalarni o’rnatish. Kerakli bilimlar tizimini faollashtirish maqsadida takrorlash, ya’ni mazkur mazmuniy yo’nalish bo’yicha keyingi materialni o’rganishdan avval zarur bo’lgan masala yechish ko’nikmalarini qayta tiklash. Har bir mazmuniy yo’nalish rivojlanish bosqichidan so’ng bilimlar tizimi to’ldiriladi, ularning ichki bog’liqliklari aniqlanadi va o’rnatiladi, ya’ni yangi, yanada yuqori tartibdagi bilimlar tizimi shakllanadi. Yuqorida ko’rib chiqilgan asosda, turli yoshdagi o’quvchilarni vaqtincha birlashtirib o’tkaziladigan takroriy-umumlashtiruvchi darslarni tashkil etish — matematikani o’qitishda izchillikni amalga oshirish yo’llaridan biri sifatida qaralishi mumkin. Ma’lumki, matematikani o’qitish samaradorligini oshirishda masalalarni va mashqlarni to’g’ri tanlash hamda ularni o’rgatishda izchillikni ta’minlash muhim ahamiyatga ega. Matematika metodikasiga oid tadqiqotlarda o’quvchilarda umumlashtirilgan algoritmlar va matematik faoliyat usullarini shakllantirish zarurligiga e’tibor qaratilgan.

Tahlil va natijalar. Pedagogikada uzviylik umumdidaktik prinsip sifatida va tizimlilik hamda ketma-ketlik prinsipi ifodasi sifatida qaraladi. Shu bilan birga, yangi bilimlar va eski tajriba o’rtasida ikki tomonlama bog’liqlik mavjudligi ta’kidlanadi. Bu bog’liqlik yangi materialning avvalgi bilimlarga, mavjud aloqalar tizimiga tayanishida, eski bilimlarning yangi bilimlar ta’sirida rivojlanishida, ilgari o’zlashtirilganlarni yangi, yuqori darajada qayta anglashda namoyon bo’ladi. Bundan tashqari, yana bir samarali usul bu guruh ishi yoki hamkorlikdagi

loyihalar. Guruhlarda ishlash talabalarda tinglash, muzokaralar olib borish va murosaga kelish kabi shaxslararo muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Umumiy maqsad sari birgalikda ishlash orqali talabalar tengdoshlari bilan samarali muloqot qilishni, mas’uliyatni taqsimlashni va muammolarni birgalikda hal qilishni o‘rganadilar.¹

Matematik masala shartini tushunish uchun rolli o‘yin faoliyati ham foydalidir. Rol o‘ynash ssenariyalarida talabalarga o‘ynash uchun muayyan rollar beriladi va ular tegishli til va muloqot strategiyalaridan foydalangan holda masala shartini yoritib beradi.

Ushbu usullardan tashqari, texnologiyani darslarga kiritish ham o‘quvchilarning matematik bilimlarini rivojlantirishga yordam beradi. Videokonferensiya, online munozara forumlari va multimedia taqdimotlari kabi vositalar o‘quvchilarga turli xil vositalar va formatlardan foydalangan holda muloqot qilish imkonini beradi.²

Xulosa va takliflar. Boshlang‘ich va umumiy o‘rta ta‘lim bosqichlari orasidagi uzviylikni ta‘minlash — matematika ta‘limining samaradorligini oshirishda muhim omillardan biridir. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘quv dasturlarining mantiqiy uyg‘unligi, mazmunning izchil ravishda rivojlanib borishi va didaktik tamoyillarga asoslangan yondashuvlar ta‘limda uzviylikni ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi. Agar har bir bosqichda bilimlar mazmuni oldingi va keyingi pog‘onalar bilan bog‘liq tarzda qurilsa, o‘quvchilarning matematik tafakkuri chuqurlashadi, fanlararo bilimlarni integratsiyalashga zamin yaratiladi. Shuning uchun ham, matematika ta‘limida uzviylik muammosining nazariy asoslarini o‘rganish va ularni amaliyotga tadbiq etish, hozirgi ta‘lim tizimi uchun dolzarb va istiqbolli yo‘nalishlardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. N.S.Kiyamov “Pedagogika. Psixologiya”, O‘quv qo‘llanma. Samarqand 2024. B.7
2. Комарова Е.А.Преемственность в обучении математике: Методическое пособие. –Вологда: Издательский центр ВИРО, 2007. – 108 с.
3. Tojiboyeva G., Shonosirova A., Xo‘jayev A., Davletov E., Abdullayeva M., “Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi”, Toshkent “MALIK PRINT COL MCHJ”, 2021. B.45.
4. Jumayev M.E, Tadjiyeva Z.G “Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi”, Toshkent “Fan va texnologiya” 2005. B.18.
5. Пышкало А.М. Преемственность в обучении математике, пособие для учителей. Сборник статей. М., “Просвещение”, 1978, 240 с.

<p>Ш.Самандарова Теоретические основы проблемы преемственности в начальном и среднем математическом образовании</p>	<p>Sh.Samandarova Theoretical foundations of the continuity problem in primary and secondary mathematics education</p>
<p>Аннотация. В статье рассматривается проблема согласованности математического образования в начальной и средней школе, её теоретические основы. Анализируются проблемы, возникающие вследствие недостаточной межпредметной и межступенчатой взаимосвязи в образовательном процессе. Также анализируются возможности развития математического мышления учащихся, способности применять межпредметные знания и формирования прочной базы знаний за счёт укрепления согласованности.</p> <p>Ключевые слова: членство, формы образования, цели образования, содержание образования, методы образования, средства образования, актуализация (припоминание), систематизация и обобщение.</p>	<p>Abstract. This article discusses the problem of coherence between mathematics education at the primary and general secondary levels and its theoretical foundations. The problems that arise as a result of insufficient inter-disciplinary and inter-stage connectivity in the educational process are analyzed. The article also analyzes the possibilities of students' mathematical thinking, the ability to apply interdisciplinary knowledge, and the formation of a solid knowledge base by strengthening coherence.</p> <p>Keywords: membership, forms of education, educational goals, educational content, educational methods, educational tools, actualization (recall), systematization and generalization.</p>

¹Jumayev M.E, Tadjiyeva Z.G “Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi”, Toshkent “Fan va texnologiya” 2005. B.18.

² Пышкало А.М. Преемственность в обучении математике, пособие для учителей. Сборник статей. М., “Просвещение”, 1978. 240 с.

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

10.09.2025 йилда теришга берилди. 26.09.2025 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84 $\frac{1}{8}$. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табоғи 14,6. Ҳисоб-нашриёт
табоғи 13,75. Адади 100 нусха. Буюртма № 0054А/25

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2025.